

**MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA IJODINING O'ZBEK MILLIY
ADABIYOTIDAGI TUTGAN O'RNI**

HAMDAMOVA MAFTUNA OLIMJON QIZI

Annotatsiya: *Maqsud Shayxzoda san`at, adabiyot tarix va falsafaga qiziqgan ko`p qirrali istedod soxibi bo`lgan. Bundan tashqari u mohir tarjimon ham bo`lgan. Uning yaratgan asarlari manaviy merosimiz va boyligimiz hisoblanadi. Hozirgi kunda juda ko`p joylarga Maqsud Shayxzoda nomiga berilgan. Maqsud Shayxzoda qondosh ozarbayjon naslidan bo`lib, keyinchalik o`zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, zabardast olimi sifatida dong taratgan shoir bo'lib, u 1908 yili Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tavallud topgan.*

**Kalit so`zlar:** *Adabiy - tanqidiy qarashlar, haqiqat himoyachisi, hayoti , asarlari , she`riy to`plamlar , ocherklar, tarjima kitoblar , falsafa , adiblarning fikri , ijodiy do`stlari.*

Aslida qondosh Ozarbayjon naslidan bo`lib, keyinchalik o`zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, dramaturgi, yozuvchisi, zabardast olimi sifatida dong taratgan Ma`sumbek o`g`li Shayxzoda 1908-yili Ozarbayjon Respublikasining Oqtosh shahrida tug`ilgan. Otasi Ma`sumbek elu-yurtda katta obro`ga ega, kasbi shifokor edi. San`at va adabiyotni yuksak qadrlagani bois, Oqtosh ziyolilari bilan turli masalalarda suhbatlashardi. Yosh Maqsud Nizomiy va Firdavsiy, Navoiy va Fuzuliy, Pushkin va Shekspir kabi buyuklar nomini ana shu davrlarda suhbatlarda eshitdi va bu muhit unga adabiyotga bo`lgan qiziqishini uyg`otdi. Hali alifboni tanimagan bo`lajak shoir chamasi besh yoshlik davrlarida sakkiz-o`n misrali masal yoza boshlagan. Shayxzoda Oqtoshdagi maktabda ta`lim oldi. Maqsud ziyrakligi, tirishqoqligi tufayli muallimlar e`tiborini qozondi va 1921-1925 yillar davomida Bokudagi Oliy pedagogika institutida sirtidan o`qidi. Shu yillari u she`rlarini qoralay boshlagan. Bo`ynoqdagi pedagogika bilim yurtida jamiyatshunoslik fanidan dars bergan Shayxzoda Ozarbayjonni Sho`rolar davlatidan ajratib olishga urinishda ayblanib, 1928-yilda Toshkentga surgun qilinadi. U Toshkentda hayotining har tomonlama yangi, bahor tarovatidek toza va beg`ubor davrini boshlashga ahd qiladi, ism-sharifiga jindek tahrir kiritib, Shayxzoda taxallusini qabul qiladi. Yosh Maqsud Nizomiy va Firdavsiy, Navoiy va Fuzuliy, Pushkin va Shekspir kabi buyuklar nomini ilk marotaba ana shu guruhlarda eshitadi va bu muhit unga adabiyotga bo`lgan qiziqishini uyg`otadi. Maqsud Shayxzoda Oqtoshda ibtidoiy maktabni bitirgach, 1921 yili Boku dorilmualliminiga o`qishga kiradi va uni tugatgach Dog`istonning Darband,

Bo‘ynoq shaharlarida muallimlik qilgan. U 1926 yili Adhem Fayziy tashkilotiga a‘zo etilgan «Milliy firqa» tashkilotiga a‘zo bo‘lib, musovotchilar harakatida faol qatnashgani uchun 1928 yili hibsga olinib, Toshkentga surgun qilingan. Umrining oxiriga qadar shu yerda yashab, ijod qilgan. Albatta, sho‘ro hukumati Shayxzodani O‘zbekistonda ham ta‘qiblar va tahqirlardan benasib qoldirgani yo‘q. Muhimi shundaki, Shayxzoda «tole doim erkalamaganiga» qaramay, umrining oxiriga qadar o‘zbek xalqining sadoqatli farzandi sifatida faoliyat ko‘rsatdi va O‘zbekiston uning ikkinchi vatani bo‘lib qoldi. Ozarbayjon naslidan bo‘lib, keyinchalik o‘zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, zabardast olimi sifatida dong taratgan Maqsud Shayxzoda 1908 yili Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tug‘ilgan. Otasi Ma’sumbek elu-yurtda katta obro‘ga ega shifokor edi. Maqsud Shayxzoda san’at va adabiyotni sevar, tarix va falsafaga qiziqgan.

Domlaning tarixga bag‘ishlangan maqolalari, ayniqsa Alisher Navoiyning ijodlariga bag‘ishlangan maqolalari e‘lon qilingan vaqtida qo‘lma-qo‘l bo‘lib o‘qilgani esimda. Alisher Navoiyga bag‘ishlangan maqolalari ustozning san’at xonasida degan nom bilan nashr qilinar edi. Bu maqolalarda Navoiy ijodining sirlarini, uning mahoratini juda ham ko‘pchilik tushunadigan sodda bir tilda tushuntirib bergan edilar. Maqsud Shayxzoda tarixni yaxshi bilgan alloma ijodkorlarimizdan biri edi. Uning Mirzo Ulug‘bekga bag‘ishlangan asari, Jaloliddin Manguberdiga bag‘ishlangan sahna asarlari, aytish mumkin-ki bu yo‘lda hali uning oldiga tushadigan asar bizda yaratilmadi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Shayxzoda iste’dodining yangicha qirralari namoyon bo‘ldi. 1945 yilda Jaloliddin Manguberdi tarixiy drammasini yaratdi. Maqsud Shayxzoda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti tashkil topgan kundan boshlab, umrining oxirigacha shu bilim maskanida yoshlarga saboq berib, ularni mumtoz adabiyotimizning nodir namunalarini bilan tanishtirdi. Shaxsga sig‘inish davrining qattol quyuni Shayxzodani yana chetlab o‘tmadi va 50- yillar boshida bir necha adiblar qatori qamoqqa olindi. Uning fikricha “...inson ruhini tarbiyalash, odamda yaxshilik unsurlarini ko‘paytirish, xalqda go‘zallik va nafosat tuyg‘usini yanada baland darajaga ko‘tarish... san’atning muqaddas vazifasidir”. 60-yillar ozod etilgan shoir ezgulikka, xaq so‘zga, adolat tantanasiga ishonib yashadi va shu ishonch bilan ijod qildi.

Maqsud Shayxzoda 1928-yil fevral oyida Toshkentga keladi. Avvaliga ozarbayjonlik tanishlarining uyida yashaydi, keyinchalik esa shoir Dadakishiyning uyida ijarada turadi. Bir yil ichida o‘zbek tilini yaxshi o‘zlashtirib olgach, o‘zbek maktablarida dars berishni boshlaydi. Bu orada O‘rta Osiyo davlat universitetining sharqshunoslik fakultetiga ham o‘qishga kiradi va faoliyati ancha kengayadi. O‘ziga bir qancha do‘stlar, hamfikrlar topadi.

Kelgusida katta yozuvchilar qatoridan joy olajak Gʻafur Gʻulom, Oybek, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor singari yoshlar bilan tanishib oladi. Bir oz vaqt “Qizil Oʻzbekiston”, “Sharq haqiqati” va “Yosh Leninchi” gazetalarida ishlaydi. Keyinchalik aspiranturada oʻqishni davom ettirib, Til va adabiyot institutida ilmiy xodim boʻlib ishlaydi. 1932-yilda shoirning “Loyiq soqchi”, “Oʻn sheʼr”, 1933-yilda “Uchinchi kitob”, “Undoshlarim”, 1935-yilda “Respublika”, 1937-yilda “Yangi davron”, “Oʻn ikki”, 1938-yilda “Bayram qoʻshiqlari”, 1948-yilda “Vatan sheʼrlari” kitoblari chop etiladi. 1938-yildan eʼtiboran, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida dars berishni boshlaydi. Urushdan keyingi qurilish yillarida qatagʻonlik jabrini tortgan boʻlsa ham, oʻz el-yurtiga fidoyi shoir Vatanimiz boʻylab keng quloch yozgan zafarli mehnat, tinchlik uchun kurash haqida “Oʻn besh yilning daftari”, “Olqishlarim”, “Zamon torlari”, “Shuʼla”, “Chorak asr devoni” kabi sheʼriy toʻplamlarini yaratadi. 1958-yili adibning koʻhna va ayni chogʻda navqiron Toshkent shahriga bagʻishlangan, uning tarixi, oʻtmishdagi madaniyat va xalqaro aloqalarini tasvirlovchi “Toshkentnoma” lirik dostoni yaratildi.

Isteʼdodli dramaturg 1960-yilda yozgan “Mirzo Ulugʻbek” tragediyasida buyuk oʻzbek munajjimi va maʼrifatparvar podshosi obrazini yaratdi. Shayxzoda Pushkinning “Mis chavandoz”, Lermontovning “Kavkaz asiri”, Mayakovskiyning “Juda soz” dostonlari va koʻplab sheʼrlarini, Shekspirning “Hamlet”, “Romeo va Juletta” tragediyalari va sonetlarini, Nozim Hikmatning sheʼrlarini, ozarboyjon shoirlari asarlarini oʻzbek tiliga agʻdardi. Shayxzodaning oʻzbek adabiyoti tarixi, oʻzbek xalq ogʻzaki ijodiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasida yaratgan ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. U filologiya fanlari nomzodi, dotsent ham edi. Shayxzoda asarlari qardosh xalqlar va xorijiy tillarga tarjima qilingan. Men Shayx aka tarjima qilgan “Romeo va Juletta”ni qabud qilish chogʻida boʻlib oʻtgan mayda gaplarni soʻzlab berganimda, u: “Hechqisi yoʻq, Maryamxonim, odamlar orasida nafrat bilan hasad ham boʻladi”, — dedi. Men bu soʻzlar bilan uning nima demochi boʻlganini anglay olmadim. Maqsud Shayxzodaning butun ijodi chuqur siyosiy publitsistik ruh bilan toʻla. Uning sheʼriy, dramatik asarlari qaysi mavzuga bagʻishlangan boʻlmasin, zamona bilan hamohangdir. Shuning uchun ham shu tipdagi ijodkorning bevosita publitsistika janrida xizmat qilishi tasodifiy hol emas. Uning zoʻr badiiy janrga ega boʻlgan publitsistik maqolalari va nutqlari bu isteʼdodli adib ijodining mazmundorligi va rangbarangligidan yorqin nishonadir. Isteʼdodli shoir mohir tarjimon ham edi. U jahon adabiyoti mumtoz shoirlarining asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilishda katta xizmat qildi. Jumladan, Shekspirning “Hamlet” va “Romeo va Juletta” asarlari oʻzbek drama teatrlari sahnasida Shayxzoda tarjimasida sahnalashtirildi. Pushkin, Lermontov, Bayron sheʼrlarini oʻzbek oʻquvchisiga ilk bor taqdim etgan

shoirlar avlodi ichida Shayxzoda ham bor. Shoir mahoratining o‘rishiga, uning jahon adabiyoti klassiklarining asarlarini g‘oyat sevib o‘rgangani, ularning boy badiiy tajribasini ustalik bilan o‘zlashtirgani ham sabab bo‘ldi. U G‘arbiy Yevropa va rus adabiyotini mukammal bilgani holda o‘zining Vatan adabiyotini - Sharq she‘riyati merosini ham to‘la o‘rgangan edi.

Maqsud Shayxzoda 1967-yil 19-fevralda og‘ir xastalik natijasida olamdan o‘tadi. Adibning ijodi va qilgan xizmatlari yuksak baholanib, 2001-yil “ Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan. Maqsud Shayxzodaning xalqimiz tarixiga, jumladan, Jaloliddin Manguberdi taqdiri va kurashiga odilona yondoshganligi, haqiqatni himoya qilganligi Prezidentimiz Islom Karimov imzosi bilan e‘lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 sentyabrdagi “Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori ham yana bir bor tasdiqlaydi. Shoir 1967-yilning 19-fevralida xastalikdan vafot etadi. Uning vafotidan so‘ng olti jildlik «Asarlar»i nashr etiladi. Mustaqillik yillarida marhum Maqsud Shayxzoda ijodi va qilgan xizmatlari haqiqiy qadr topdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Maqsud Shayxzoda Ozbarbayjon va O‘zbek xalq adabiyotining eng zabardast shoir va adiblaridan hisoblanadi. Mana necha yildirki ijodiy asarlari so‘ngan emas va qalbimizning tub tubidan joy olgan. M.Shayxzoda ikki xalq she‘riyati cho‘qqisini egallagan shoirlardandir. O‘zbek xalqi doimo shunday ulug‘ ijodkori borligidan faxrlanadi. O‘ylaymanki, biz yosh avlod va keyingi avlodlar ham M.Shayxzoda she‘riyati gulshanidagi gullaridan ifor, she‘riyati va adabiyotidan esa muhabbatni his etib yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Matchonov, Sh. Sariyev, “Nafis Bezak” 2012y
2. Boboyev T. “Adabiyotshunoslik asoslari”. Toshkent. 2002. 558 b.
3. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969.
4. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972.
5. G‘afurov I., O‘rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975.